

## ТА'LIMGA OID YANGILIKLAR

*Yarmaxatova Gulnoza Olim qizi  
Bekmurodova Nafisa Ismoilovna  
Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani  
15-umumiy o'rta ta'lim maktabining  
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limga oid yangiliklardan biri CRM tizimi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ustoz, method, yangilik, CRM.

Hozirgi kunda ta'limda tubdan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar ta'lim sifatini yanada oshirmoqda. Siz bilan hozir Shunday yangiliklardan biri CRM tizimi haqida gaplashamiz.

Ustozlar hozirgi vaqtda CRM tizimiga bo'lgan ehtiyojlarini bir nechta turli dasturlar / usullar vositasida qondirib kelishmoqda. Masalan, ular fayllarini saqlash uchun Telegram chatlarini yoki Google Drive akkauntini ishlatishadi; Dars jadvallarini qog'ozda yoki telefon gallereyasida rasm ko'rinishida saqlashadi; Ta'limga oid muloqotni albatta Telegram guruhlarida amalga oshirishadi. Agar o'qituvchilarning onlayn xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini bitta xizmat yoki dasturga jamlasak, ajoyib bir loyiha ko'rinishi oladi.

O'qituvchilarga asosan nimalar kerak?

Kundalik takrorlanadigan, bir xil ishlarni avtomatlashtirishga ehtiyoj bor. O'zim 6 yil davomida umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qituvchi bo'lib ishlaganman. Tajribamdan kelib chiqib o'qituvchilar uchun avtomatlashtirish yoki hech bo'lmaganda qulaylashtirish mumkin bo'lgan ba'zi ishlarni keltirib o'tishim mumkin.

Har bir o'qituvchi har kuni o'z dars jadvaliga albatta qaraydi. Qaysi sinfga qachon darsi borligini bilsa ham qaraydi! O'qituvchilar uchun CRM tizimda albatta dars jadvali bo'lishi kerak.

Ko'pchilik ustozlar o'z fanlariga oid testlar, masalalar va turli sinovlarni izlashadi. Internet orqali o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladigan eng ko'p qidiruv savollari ham aynan testlarga to'g'ri kelar ekan. O'qituvchilar o'rtasida testlar va boshqa sinov materiallari almashinuvini tashkil qilish kerak.

Ustozlar bir-birlari bilan fikr almashishni yoqtirishadi. Ammo o'qituvchilar uchun maxsus ijtimoiy tarmoq yo'q. To'g'ri, Telegram guruhlarida bemaol fikrlashish mumkin. Lekin, biologiya fani o'qituvchilari aynan biologiya fani o'qituvchilari bilan aloqa o'rnatishni istashi mumkin. Ustozlarni fanlar, ish tajribalari, hududlar va ilmiy darajalar bo'yicha guruhlashtirib jamlaydigan ijtimoiy tarmoq yaratilsa ajoyib ish

bo'lardi. Faqat o'qituvchilar qabul qilinadigan ijtimoiy tarmoqni Ziyonet yaratishga urinib ko'rdi, ammo mobil ilova ko'rinishida, Facebook yoki Odnoklassniki kabi qulay darajada taqdim eta olmadi.

Oylik hisob-kitobi o'qituvchilar orasida eng ko'p muhokama qilinadigan jihatlardan biri. UzASBO oylik boti bekorga mashxur bo'lib ketmadi. CRM tizimda aynan shu masalaga ham to'xtalish kerak. Toifa, hudud, fan va boshqa jihatlar bo'yicha o'qituvchilarning oyligini hisoblaydigan kalkulator yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ta'limga oid yangiliklar, qabul qilingan qonunlardan boshlab mish-mishlargacha bo'lgan xabarlarni o'z ichiga oluvchi yangiliklar lentasi foydali bo'lishi mumkin. 20-30 ta har xil Telegram kanallarga obuna bo'lmasdan, o'qituvchilar bitta mobil dastur ichida barchasidan xabardor bo'lsa juda yaxshi bo'ladi.

Bu g'oya pul keltiradimi?

Maqola boshlanishida aytganimdek, ta'limda «soqqa qilish» ancha qiyin. Chunki ma'naviy-ma'rifiy mahsulotlarning xaridori juda kam. O'qituvchilar uchun maxsus mobil dastur ko'rinishidagi tizim yaratilsa, butun O'zbekiston bo'ylab ustozlar dasturga katta qiziqish bildirishlari mumkin. Ammo dasturni hech kim pul to'lab ishlatmasligi mumkin. Shu sababli dastur albatta bepul bo'lishi shart.

Pul ishlashning usullari ko'p. Tekin narx belgilash haqida fikrlashganmiz. Agar tizim o'qituvchilar orasida yetarlicha ommalashsa, dastur ichiga reklama joylashtirish orqali ham pul ishlash mumkin. Juda katta foyda keltirmasa ham, loyihaning joriy va keyingi xarajatlariga yetib turadigan summa yig'ilishi ehtimoli yuqori. Bundan tashqari, ta'lim sohasiga katta grantlar e'lon qilinadi. Dastur yaxshi rivojlanib, ommalashib olgandan keyin kattaroq summa taklif etiladigan grantga ariza yuborish va katta investitsiya jalb qilish ham mumkin.

Men O'zbekistonda ta'limning rivojlanishi tarafdoriman. Axborot texnologiyalariga qiziqayotgan, startaplar bilan shug'ullanish rejasida yurgan yoshlar va ayni vaqtda o'qituvchi bo'lib ishlayotganlarga yuqoridagi g'oya haqida o'ylab ko'risharini iltimos qilaman.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11

Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. "O'zbekiston" 2017